

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



«Tilshunoslikning mantiqiy asoslari»

fanning o'quv dasturi (sillabus)

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230700 – Amaliy filologiya

Semestr	Fan kodini 302TMA 25	Fan turi Majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024		Jami			
				Mustaqil	Ita'lim (soat)				
Har bir semestr-dagi fanning nomi	ECTS -kreditlar	O'quv mashg'ulotlari (soat)	Jami:		Yuklama				
			ma'ruza	seminar					
3	Tilshunoslikning mantiqiy asoslari	5	4	60	20	20	0	90	150
			Jami:	5	60	20	20	0	90

1. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni to'g'ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonun-qoidalar bilan tanishtirish, shu asosida ularda murakkab mantiqiy-lingvistik masalalar va mashqlarni yechish malakasini mustahkamlash, mustaqil, erkin va ijodiy fikr yuritish qobiliyatini takomillashtirishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarning mantiqning asosiy masalalari – tushuncha, mulohaza, xulosa chiqarish, isbotlash, gipoteza qurish kabilarni o'zlashtirishiga erishish; obyektiv borliq hodisalarini ilmiy-falsafiy tahlil qilishning tushunchalar apparatini egallash va undan foydalanishga ko'nikmasini shakllantirish; mantiqning formalashgan tilini chuqur o'rganish; talabalarga baho yuritish, munozara qilish, isbotlash va rad etishning usullari va qoidalarini tushuntirish, ularda ilmiy ishonch – e'tiqodning shakllanishiga ko'maklashish; ilmiy bilimlarning mantiqiy shakllari, xususan, muammolarni yaratish, farazlarni qurish va asoslash, ilmiy termin va qonunlarni shakllantirish, ilmiy nazariya qurishning mantiqiy mexanizmlarini o'rganishga erishish.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

- talabalarning mantiq va tilshunoslikning asosiy masalalari – tushuncha, konsept, ma'no, mulohaza, xulosa chiqarish, isbotlash, gipoteza qurish hamda hukm va gap munosabati va strukturasi kabilarni o'zlashtirishga erishish;
- obyektiv borliq hodisalarini ilmiy-falsafiy tahlil qilishning tushunchalar apparatini egallash va undan foydalanishga ko'nikmasini shakllantirish;
- mantiqning formalashgan tilini chuqur o'rganish;
- talabalarga baho yuritish, munozara qilish, isbotlash va rad etishning usullari va qoidalarini tushuntirish;

- ilmiy bilimlarning mantiqiy shakllari va fikrning nutqda ifodalanishi, xususan, muammolarni yaratish, farazlarni qurish va asoslash, ilmiy termin va qonunlarni shakllantirish, ilmiy nazariya qurishning mantiqiy mexanizmlarini va uni tilda ifodalashni o'rganishga erishish;

- terminlarning umumiy va xususiy, lingvistik va qomusiy leksikografik talqini muammolarni tahlil qila olishi kerak.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

“Mantiq” fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, tizimlilik, obyektivlik tamoyillariga amal qilingani holda an'anaviy usullar, davra suhbat, klaster, matbuot konferensiyasi, baho-munozara, aqliy hujum, taqdimot kabi zamonaviy pedagogik texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

4. TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom” Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan “Tilshunoslikning mantiqiy asoslari” fani 150 soat (3-semesterda 150) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijodiy baholani kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 4 (3-semesterda 4) kredit beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: 2 ta.

1-oralik nazorat yozma ish shaklda o'tkaziladi.

Tilshunoslikning mantiqiy asoslari fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollarga yozma javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savolnoma savollari Tilshunoslikning mantiqiy asoslari fani mavzulariga tegishli muntazir mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 30 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 90 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'ton qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Yozma ishini baholash mezonlari: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

2-oraliq nazorat og'zaki so'rov shaklida o'tkaziladi. Tilshunoslikning mantiqiy asoslari fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savolnomasiga og'zaki javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savollariga talaba og'zaki javob beradi. Variant savolnomasi Tilshunoslikning mantiqiy asoslari fani belgilangan mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 10 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Og'zaki nazoratni baholash mezonlari: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat: Tilshunoslikning mantiqiy asoslari fani bo'yicha har bir talaba 30 ta savoldan iborat test topshiradi. Test kompyuterda test.navoiiy-uni.uz platformasida tashkil etiladi. Talabaga login va parol orqali tizimga kirish imkoniyati yaratiladi. Test topshiriqlari savollari Tilshunoslikning mantiqiy asoslari fani mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 2 daqiqa, jami 30 ta savol uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshirish jarayonida test bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Test natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Testni baholash mezonlari Talaba jami savollardan 27-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 23-26 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-22 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kam (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va YNni topshira olmagan hisoblanadi.

Izoh: Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarining o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarining bilimlari baholash mezonlari:

5 baho. Talaba Tilshunoslikning mantiqiy asoslari faniga oid bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtiradi, olgan bilimlarini tizimlashtira oladi va nazariy jihatdan aniq va mantiqiy bayon qila oladi, amaliy qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladi, fan bo'yicha qo'shimcha savollarga javob bera oladi. Shuningdek, mantiqqa oid qiyin masalalarga yechim topa oladi, fan bo'yicha ilmiy terminologiyani erkin ishlata oladi.

4 baho. Talaba Tilshunoslikning mantiqiy asoslariga oid bilimlarni o'zlashtirgan, olgan bilimlarini tizimlashtira oladi va erkin bayon qila oladi, amaliy qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladi, fan bo'yicha savollarga javob bera oladi. Shuningdek, mantiqqa oid murakkab bo'lmagan masalalarga yechim topa oladi, fan bo'yicha ilmiy terminologiyani qisman ishlata oladi.

3 baho. Talaba Tilshunoslikning mantiqiy asoslari oid bilimlarni sayoz o'zlashtirgan, fanga oid tushunchalarini tizimlashtirishda, olgan bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan bog'lashda, oddiy masalalarni hal qilishda qiynaladi, ilmiy terminologiyani to'g'ri qo'llay olmaydi.

2 baho. Talaba modul bo'yicha yetarli bilimiga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiynchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

3-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

No	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Saflar hajmi
1	Fanning obyekt, predmeti, maqsad va vazifalari	Mantiq, formal mantiq, dialektik mantiq, matematik mantiq, gnoscologiya, zamonaviy epistemologiya	2
2	Mantiq ilmi va til	Umuminsoniy qadriyat, milliy mafkura, metodologiya, aksiyoma, germenetika	2
3	Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari haqida tushuncha	Fikrning aniq mazmuni, mantiqiy shakli, tafakkur qonuni, mantiq qonuni	2
4	Formal mantiqning asosiy qonunlari (tamoyillari).	Ayniyat qonuni. Nozidlik qonuni. Uchinchi mustasno qonuni. Y'tarli asos qonuni.	2
5	Lison, nutq, tafakkur.	Tilni mantiqiy tahlil qilish, tafakkur shakllari	2
6	Tushuncha.	Tushuncha, mantiq, konsept, shakl va mazmun, ma'no va lisoniy shakl	2
7	Hukm. Savol. Norma (me'yoriy qoida).	Hukm tafakkur shakli, oddiy va murakkab hukm, biriktiruvchi va ayiruvchi hukm, implikativ hukm.	2
8	Xulosa chiqarish.	Zaruriy va ehtimoliy xulosa, deduktiv xulosa chiqarish, induktiv	2

		xulosa chiqarish, analogiya va ularning nutqiy ifodalanishi	
9	Dalillash.	Dalillash va ishonch, ishonitirishning mantiqiy omillari, tanqid va rad etish	2
10	Muammo. Faraz. Nazariya.	Muammoli vaziyat, ilmiy muammo, faraz turlari, umumiy va xususiy faraz	2
		Jami:	20 s.

2. Seminar mashg'ulotlar

№	Seminar mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Sonlar hajmi
1	Mantiq ilmi predmeti va ahamiyati.	Mantiq – tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan. Mantiq va tilshunoslikning yondosh asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo'nalishlari.	2
2	Tilning strukturasi va mantiqiy tahlili.	Mantiq fanining fikrlash madaniyatini o'stirishdagi, shu jumladan, mustaqil, erkin fikr yuritish va fikr mahsulini tilda ifodalash ko'nikmalarini bosil qilishdagi ahamiyati. Mantiq fanining ilmiy ishonch shakllanishida turgan o'rni.	2
3	Formal mantiqning asosiy qonunlari (tamoyillari) va ularning nutqiy ifodalanishi.	Formal mantiqning predmeti va tuzilishi, uning dialektik mantiq va matematik mantiq va mantiqiy grammatika bilan o'zaro munosabati. Formal mantiqning falsafiy bilimlar tizimida turgan o'rni: gnoseologiya, zamonaviy epistemologiya, metodologiya, aksiologiya, germeneytika bilan o'zaro munosabati.	2
4	Tushuncha – tafakkur shakli sifatida. Tushuncha, ma'no va konsept munosabati.	Predmetning xossalari, munosabatlari predmet belgilar sifatida. Predmetlarning umumiy va individual, muhim va nomuhim belgilar va uning tilda ifodalanishi. Tushuncha – predmetlarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi mantiqiy shakl va uni nutqiy ifodalash shakllari.	2

5	Til axborot (informasiya) belgilari tizimi sifatida. Tafakkur qonunlariga rioya qilish – bilishda haqiqatga erishish sharti	Predmetlar sinfi va so'z turkumlari, mantiqiy tasnifning grammatik tasnifga munosabati. Sinflarning turlari: katta va kichik sinflar hamda grammatik turkumlarda makro va mikrosistemalar. Sinf unsurlari va lisoniy semantik birlik.	2
6	Me'yor, hukm va gap	Norma (me'yoriy qoida) xatti-harakat qoidalarini ifoda qiluvchi fikr sifatida. Me'yor va hukm. Me'yorning voqe'likka bo'lgan munosabatining mantiqiy ifodalanishi.	2
7	Qat'iy sillogizm tarkibi. Sillogizmining aksiomasi va umumiy qoidalari	Qat'iy sillogizm tarkibi. Sillogizmining aksiomasi va umumiy qoidalari. Sillogizm figurallari va moduslari. Figuralarning maxsus qoidalari. Qisqartirilgan sillogizm (entimema).	2
8	Xulosa chiqarish usullari. Termin semantikasi va leksikografik talqini	Induktiv va deduktiv xulosa chiqarish tushunchasi va ularning nutqiy ifodalanishi. Induksiyaning tajriba natijalarini umumlashtirish bilan aloqasi. Induktiv xulosa chiqarish turlari: to'liq va to'liqsiz induksiya. Analogiya. Analogiya asosida xulosa chiqarish turlari	2
9	Bahs yuritishning mohiyati va shakllari. Polemika va munozara tushunchalari, semantikasi va leksikografik talqini	Bahs yuritishning mohiyati va shakllari. Polemika va munozara tushunchalari. Munozara qilish qoidalari. Isbotlash va rad etishning ilmiy bilishdagi ahamiyati.	2
10	Dalillash va ishonchning shakllanishi jarayoni. Ishonitirishning mantiqiy omillari. Terminlar semantikasi va leksikografik talqini	Dalillash. Dalillash va ishonchning shakllanishi jarayoni va semantik xususiyatlari. Ishonitirishning mantiqiy omillari va semantik xususiyatlari.	2
	Jami		20

3. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Sonlar
---	-------------------	----------------------------------	--------

	mavzulari	hajmi
1	Tushuncha, ma'no va konseptlarni chegaralash va umumlashtirishga doir amaliy masalalar ustida ish	Tushunchaning ma'noda va ularning konseptda namoyon bo'lishi. Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar: tahlil, sintez, taqqoslash, mavhumlash (abstraksiyalash), umumlashtirish va boshqalar hamda ularning umumiy, oraliq va xususiy ma'nalarda namoyon bo'lishi. Tushunchalarning tilda ifoda qilinishi.
2	Hukm va gap. Oddiy va murakkab hukmlar, sodda va qo'shma gaplarga doir amaliy mashqlar	Hukm tafakkur shakli sifatida va uning nutqiy qurilishi. Hukmning va gapning tarkibi va asosiy xususiyatlari. Oddiy va murakkab hukmlar, sodda va qo'shma gaplar munosabati. Oddiy hukm tarkibi va grammatik ifodalanishi.
3	Sig'ishadigan va sig'ishmaydigan hukmlar va uning nutqiy strukturasi va ifodalovchilariga doir amaliy mashqlar	Sig'ishadigan va sig'ishmaydigan hukmlar. Sig'ishadigan hukmlar o'rtasidagi munosabatlar: qarama-qarshilik, mantiqiy bo'ysunish, qisman moslik (subkontrariflik) va ularning lisoniy asoslari va nutqiy ifodalanishi.
4	Savol fikrning maxsus shakli sifatida. Savol fikr va so'roq gap munosabatiga doir amaliy mashqlar	Savol fikrning maxsus shakli sifatida va so'roq gaplarning semantik va struktur turlari. Mantiqan to'g'ri va noto'g'ri qo'yilgan savollar. Savolni to'g'ri qo'yish shartlari.
5	Qat'iy sillogizm tarkibi. Sillogizmining aksiomasi va umumiy qoidalariga doir amaliy mashqlar	Qat'iy sillogizm tarkibi. Sillogizmining aksiomasi va umumiy qoidalari. Sillogizm figurallari va modullari. Figuralarning maxsus qoidalari. Qisqartirilgan sillogizm (entimema).
6	Induktiv xulosa chiqarishga doir amaliy mashqlar	Induktiv xulosa chiqarish tushunchasi va ularning nutqiy ifodalanishi. Induksiyaning tajriba natijalarini umumlashtirish bilan aloqasi. Induktiv xulosa chiqarish turlari: to'liq va to'liqsiz induksiya.
7	Ishontirishning mantiqiy omillariga doir amaliy mashqlar.	Dalillash, Dalillash va ishonchning shakllanishi jarayoni va semantik xususiyatlari. Ishontirishning

		mantiqiy omillari va semantik xususiyatlari.
8	Isbotlashning tarkibi: tezis, asoslar (argumentlar), isbotlash usuliga doir amaliy mashqlar	Isbotlash tushunchasi va semantik xususiyatlari. Isbotlashning tarkibi: tezis, asoslar (argumentlar), isbotlash usuli.
9	Ilmiy tanqid qilish oldiga qo'yiladigan mantiqiy talablarga doir amaliy mashqlar	Ilmiy tanqid qilish oldiga qo'yiladigan mantiqiy talablarni. Isbotlash va rad etish qoidalari. Tezisga va antitezisga oid qoidalar.
20	Ilmiy muamolarning vujudga kelishi va mantiqiy tuzilishi, ularning turlari, nutqiy shakllari va hal qilinishiga doir amaliy mashqlar	Muammo va uning bilishdagi ahamiyati va uning umumiy hamda terminologik ma'nosi. Ular orasidagi semantik umumiylik va farqlar. Muammoli vaziyat tushunchasi.
		Jami: 20 s.

4. Mustaqil ta'lim ishlari

"Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar"ning asosiy maqsadi - o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan taqtiqot ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Fan bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mantiq materiallari bilan mustaqil ravishda tanishish, ularni konspektlashirish;
- mantiq birliklarini tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- muayyan mavzu bo'yicha tezis yoki maqola tayyorlash;
- amaliy mavzular bo'yicha ijodiy ishlash;
- mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash;
- mustaqil (ijodiy) ishlarni shakllantirish;
- muammoli ma'ruzalar qilish;

Taqdimotlar amaliy mashg'ulotlarda muhokama qilinadi va baholanadi.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsif (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Qadimgi dunyoda mantiq ilmining shakllanishi	Seminar	Qadimgi dunyoda mantiq ilmining shakllanishi, tarixi, bosqichlari	2

2	O'rta asrlarda mantiq ilmi.	Seminar	O'rta asrlarda mantiq ilmi, tarixi, bo'sqichlari	2
3	Yangi davrda mantiq ilmi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.	Seminar	Yangi davrda mantiq ilmi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, bo'sqichlari	2
4	Turkumlash.	Seminar	Turkumlash, turkumlash bo'sqichlari	4
5	Analogiya.	Seminar	Analogiya. Analogiya asosida xulosa chiqarish turlari: xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi. Qat'iy va qat'iy bo'lmagan analogiya.	4
6	Dalillash va ishonchning shakllanishi. Ishontirishning omillari.	Seminar	Dalillash va ishonchning shakllanishi jarayoni va semantik xususiyatlari. Ishontirishning mantiqiy omillari va semantik xususiyatlari.	4
7	Isbotlash. Isbotlashning tarkibi: tezis, asoslar (argumentlar), isbotlash usuli.	Seminar	Isbotlash tushunchasi va semantik xususiyatlari. Isbotlashning tarkibi: tezis, asoslar (argumentlar), isbotlash usuli.	4
8	Bevosita va bilvosita isbotlash.	Seminar	Bevosita va bilvosita isbotlash. Isbotlash va rad etishning ilmiy	2

9	Rad etish tushunchasi.	Seminar	Rad etish tushunchasi. Tanqid va rad etish. Rad etish usullari: tezisni rad etish, asoslarni (argumentlarni) tanqid qilish; rad etish usulining puchligini aniqlash.	2
10	Ilmiy tanqid qilish qo'yiladigan mantiqiy talablar.	Seminar	Ilmiy tanqid qilish oldiga qo'yiladigan mantiqiy talablar.	4
11	Isbotlash va rad etish qoidalar.	Seminar	Isbotlash va rad etish qoidalar.	2
12	Tezisga va antitezisga oid qoidalar.	Seminar	Tezisga va antitezisga oid qoidalar.	2
13	Fikrni asoslashda uchraydigan boshqa mantiqiy xatolar: paralogizmlar, sofizmlar.	Seminar	Fikrni asoslashda uchraydigan boshqa mantiqiy xatolar: paralogizmlar, sofizmlar.	4
14	Mantiqiy paradoks va uning ifodalanish shakllari.	Seminar	Mantiqiy paradoks va uning ifodalanish shakllari.	2
15	Bahs yuritishning mohiyati va shakllari. Polemika va munozara tushunchalari.	Seminar	Mantiqiy bahs yuritish	4
16	Isbotlash va rad etishning ilmiy bilishdagi ahamiyati.	Seminar	Mantiqiy isbotlash va rad etish	2
17	Muammo va uning bilishdagi ahamiyati.	Seminar	Mantiqiy muammo va uning bilishdagi ahamiyati	2
18	Ilmiy muamolarning vujudga kelishi va mantiqiy tuzilishi, ularning turlari va hal qilinishi.	Seminar	Mantiqda ilmiy muamolarning vujudga kelishi	4
19	Ilmiy bilishda muammoni hal qilib bo'lmastikni aniqlash.	Seminar	Mantiqda ilmiy bilish	4
20	Faraz - bilimlarning mavjud bo'lish va taraqqiy etish shakli.	Seminar	Faraz - bilimlarning mavjud bo'lish	4
21	Ishechi faraz tushunchasi.	Seminar	Ishechi faraz	2
22	Nazariya bilimlarning mantiqiy tizimi sifatida.	Seminar	Nazariya bilimlarning tizimi sifatida.	4

	Gipotetik-deдуктив Aksiomatik tarzda nazariyalar.	va qurilgan	Seminar	mantiqiy tizimi	
23				Aksiomatik tarzda qurilgan nazariyalar.	4
24	Qadimgi dunyoda ilmining shakllanishi.	mantiq	Seminar	Qadimgi mantiq ilmi	4
25	O'rta asrlarda mantiq ilmi.		Seminar	O'rta asrlarda mantiqning shakllanishi	2
26	Yangi davrda mantiq ilmi taraqqiyotining yo'nalishlari.	mantiq ilmi asosiy	Seminar	Mantiq ilmi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.	2
27	Savol va javob-mulohazalarini hosil qilish vositalari.		Seminar	Savol, javob, mulohaza	4
28	Murakkab hukmlar yordamida sillogistik xulosa chiqarish.		Seminar	Hukm, murakkab hukm, soda hukm	4
29	Fikrni asoslashda uchraydigan boshqa mantiqiy xatolar: paralogizmlar, sofizmlar hamda ularning mantiqiy shakllari		Seminar	Fikrni asoslashda uchraydigan boshqa mantiqiy xatolar: paralogizmlar, sofizmlar. Mantiqiy paradoks va uning ifodalinish shakllari. Bahs yuritishining mohiyati va shakllari.	4
				Jami:	90 s.

6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

- Asosiy adabiyotlar:**
1. Xайруллаев М., Хаббердиев М. Мантик. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
 2. Шарипов М., Файзахужаева Д. Мантик. Ўқув қўлланма. – Т., 2004.
 3. Тураев Б. Логика: Масала ва машқлар. “Тафаккур” нашриётн - Т., 2009.
- Qo'shimcha adabiyotlar**
1. Алексеев А.П. Аргументация. Познание. Обобщение. – М., 1991.
 2. Войшилло Е.К. Символическая логика: классическая и релевантная. – М.: Изд-во МГУ, 1989.
 3. Войшилло Е.К. Понятие как форма мышления. – М.: Изд-во МГУ, 1989.
 4. Градовой В.Н. Логика. Структурированный учебник. – М., 2003.
 5. Иван А.А. Логика. – М., 2003.

6. Ивлев Ю.В. Логика. Учебник для вузов. – М.: Логос, 1998.
7. Курбагов В.И. Логика. – Ростов-на-Дону. Феникс, 1997.
8. Рахимов И. Логикдан аманлий машгулотлар ва методик тавсиялар. – Т.: Ўзбекистон, 1988.
9. Логико-гносеологические идеи мыслителей Средней Азии. – Т.: Фан, 1981.
10. Логика и компьютер. Моделирование рассуждений и проверка правильности программ. – М.: Наука, 1990.
11. Маркин В.И. Сидлотистические теории в современной логике. – М., Изд-во МГУ, 1991.
12. Материалы по истории общественно-философской мысли в Узбекистане. – Т.: Фан, 1976.
13. Муस्ताқиллик: илмий, илоҳий оммабон лугат. – Т.: Шарқ, 1999.
14. И.Мўминов И.М. Ўзбекистон икътимоий-фалсафий тафаккури тарихидан. – Т.: Фан, 1994.
15. Степанова О.И. Логика. – Т., 2009.
16. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Т.: Ўзбекистон, 1991

Axborot manbalari

www. literature.uz
www. genhis.philol.ru.
<http://kaachkine.narod.ru/CommTheory/Contents/Contents.htm>

7. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 __ yil „ __ “ __ dagi „ __ “ -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.	
“Amally filologiya” kafedrasi mudiri, f.f.d., prof. B.Mengliyev	(imzo)
Tuzuvchi: B.Mengliyev	(imzo)
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d.	
Taqrirlahilar: L.Raipova	(imzo)
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d.	
D.Elova	(imzo)
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b., f.f.d.	